

**MAKTAB MUSIQA TA’LIMIDA FORTEPIANO CHALISHGA
O’RGANISH USLUBLARI**

Imomnazarova Aziza Rustamovna.

UzFinPI “musiqa ta’limi” kafedrasi jo’rnavoz o’qituvchisi.

Ilmiy rahbar: Hamrayeva Umida Shonazarovna

UzFinPI “musiqa ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Umumiy musiqiy-estetik tarbiyada umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan fortepiano to’garaklarining o’rni va mashg’ulotlarda ijrochilikka o’rgatish uslublari haqida so’z yuritiladi.

Ta’lim tarbiyani yuqori bosqichlarda rivojlantirish talablari tizimning barcha bosqichlarida, shu jumladan umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan fortepiano ijrochiligi to’garaklarida o’quvchi-yoshlarni fortepianoda chalish ko’nikma va malakalarini rivojlantirish mashg’ulotlarni pedagogik va metodik jihatdan to’g’ri yo’lga qo’yilishi g’oyat muhimdir. Shu o’rinda ta’limning ilg’or usullari, zamonaviy interfaol texnologiyalarini qo’llash, mashg’ulotlar davomida o’quvchilarning o’ziga xos musiqiy ijrochilik qobiliyatlariga mos pedagogik yondashuvlar asosida ish tutish mazkur jarayonni samarali kechishini ta’minlovchi eng asosiy shartlardandir.

Fortepiano sinfiga o’tkazilgan dastlabki mashg’ulotlar jarayonida qo’llaniladigan eng muhim ish tutish usullariga quyidagilarni tavsiya etish metodik jihatdan to’g’ri buladi:

- musiqiy eshitish (tinglash) tasavvurlarini faollashtirish;
- tinglash va eslab qolish(xotira) qobiliyatlarini rivojlantirish;
- musiqa materialini harakat tasavvurlari bilan birga obrazli tasavvuir qilish malakasini tarbiyalash;
- Tinglash diqqatini va o’z ijrosini nazorat qilish va baholash ho’nikmasini faollashtirish;
- O’quvchilarni nota bilan chalish, varaqdan o’qish, shu o’rinda qo’yilgan vazifalarni mustaqil bajarish, mustaqil izlanish va ijodiy anglashga rag’batlantirish.

Zamonaviy ta’lim metodikasi mashg’ulotlarni o’tkazishning turli xil shakllari, muammoli ta’lim usullaridan, ilg’or xorijiy tajribalar elementlaridan maqsadli va o’z o’rinda foydalanish o’quvchilar bilan yakka tartibda va ansambl bo’lib ijro etishda ularning o’z ijrochilik qobiliyatlarini to’liqroq namoyon etishlarida qo’l keladi. Bu tarzda ish olib borish pedagogikaning umumiy didaktik prinsiplariga ham mos keladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umuta’lim maktablarida

tashkil etiladigan cholg’u ijrochiligi to’garaklarini maqsadi ham haqiqiy musiqachi-ijrochilar tayyorlashni ko’zda tutmaydi. O’quvchining musiqiy-ijrochilik kamolotiga mashg’ulotlar: varaqdan o’qish, eshitib chalish, tovushlarni baland va past pardaga o’tkazish, badiiy ijro, ansamblda chalish, asarni xomaki o’rganish kabilarni qamrab olishi lozim. Badiiy ijro etish o’quvchilarni estetik va aqliy kamol toptirishdan iborat bo’lib, badiiy idrok va ijro musiqaning eng oddiy shakllarini solishtirish va taqqoslashdan, chuqur badiiy-nazariy tahlil qilish va umumlashtirishgacha bo’lgan fikrlash bilan tavsiflanadi.

Fortepiano cholg’usida ijro etish faqat muayyan ko’nikma va malakalarini emas, balki ijodiy faollikni, maqsadga intilish, diqqat – e’tiborlilik, qat’iy intizom va tashabbuskorlikni talab qiladi. O’quvchilar turli janr, xarakterdagi musiqa asarlarini o’rganish va ijro etish, asarda ifoda, badiiy obraz, voqeilik, lirik kechinmalar, ularni musiqada aks etishi, muallifning ichki kechinmalarini his etish, tushunish, badiiy idrok etish bilan shu kechinmalar, ma’naviy-estetik fikrlarga erishadilar.

Fortepiano to’garaklarida o’tkaziladigan yakka tartibdagi mashg’ulotlarni tashkil qilish va o’tkazish vazifalari umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani dasturi talablarini hisobga olish lozim. Buning boisi, badiiy havaskorlik to’garaklari mashg’ulotlari mакtabda o’qitiladigan “Musiqa madaniyati” darslarini qandaydir darajada to’ldirishi va davom ettirishi, o’quvchilarni musiqiy ijrochilikka bo’lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondirish maqsadiga hizmat qilish, ular o’zaro bog’langan, bitta uslubiy yo’nalishga ega bo’lishi lozim. Umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani dasturida asosiy vazifalar o’quvchilarda musiqa mashg’ulotlariga qizish rivojlantirish, musiqiy nazariy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga o’quvchilar dastlabki darslardanoq faqat musiqani idrok etish, musiqa nazariyasi, musiqa ijrochiligiga oid bilim, malakalarini emas, balki musiqa san’ati haqida fikr yuritish, unga o’z munosabatini bildirish, mushohida va tahlil qilishni ham o’rganadilar. Musiqa darslarining mavzulilik va yaxlitlilik tamoyili eng muhim ahamiyatga ega bulib, nazariy ma’lumotlarni bayon qilish va o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi esa musiqani hissiyot bilan tushunishi, idrok qilish asosida amalga oshiriladi.

Umumta’lim maktablaridagi musiqa fanini o’qitilishi, musiqa ijrochiligi bo’yicha tashkil etiladigan to’garaklarning asosiy maqsadi o’quvchilarni g’oyaviy-hissiy va axloqiy, estetik tarbiyalash ularda musiqa madaniyatini tarkib topishi va yuksalishiga ko’maklashishdan iboratdir. Shuning uchun ham musiqa ta’limi tizimini yosh avlodni uyg’un kamol toptirishning asosiy omili sifatida ahamiyatlidir. Musiqa bilan shug’ullanish badiiy bilim faoliyati bo’lib:

- G’oyaviy e’tiqodni shakllantiradi;

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- Axloqiy-estetik tarbiyalaydi;
- O’quvchilarda musiqiy qiziqishining psixologik maqsadi va eng asosiy yo’nalishlarini belgilaydi;
- Ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi;
- Musiqani idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- Musiqiy-badiiy didni o’stiradi;
- Ijodiy faollikni, tafakkurni, musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi;
- Eng zarur bilim, ko’nima va malakalarni hal qiladi, bo’sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi.

Hozirgi vaqtida keng qo’llanilayotgan va ta’rif berilgan metodika bo'yicha fortepiano chalishni o'rganish ta'limning ilk bosqichlaridan quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

1. Musiqiy iste'dodi kuchsiz bolalar musiqiy jihatdan ancha layoqatli bo'lib qoladilar.
2. O’quvchikarda fortepiano cholg’usi bilan jiddiy shug’ullanishga qiziqish, intilish vujudga keladi.
3. O’quvchida obrazli tafakkur, ijodiy tasavvur kuchayadi.
4. O’quvchining diqqati, irodasi faollahashi, o’z-o’zini nazorat qilish mas’uliyati ortadi.
5. O’ziga xos ijrochilik sifatlari jadal rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTRLAR

1. Rajabova D. “Fortepiano mashg’ulotlari”. Toshkent, O’qituvchi, 1994yil.
2. Muhammadjonova Z. “Fortepiano ansamblini o’rganish uslubiyati”. Toshkent. Turon-Iqbol, 2010 yil.
3. Azimov N. “Fortepiano darsligi”. -Toshkent, O’qituvchi, 1998y.